



## BOSQINCHILIK JINOYATLARINI OLDINI OLISH

**Turg'unov Akramjon Abrorjon o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi 302-guruh kursanti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi kunda Huquqbuzarliklar juda ko'payib borayotganligi, Olib borilayotgan keng ko'lami ishlar natijasida fuqarolarda jinoyatchilikka qarshi kurashishga va huquqbuzarliklarning oldini olishga daxldorlik hissi shakllanayotganligi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi turli xil chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *huquqbuzarlik, jinoyatchilik, fuqarolar, chora-tadbir, natija, vaziyat, muloqot, jamoatchilik.*

Mamlakatimizda so'nggi yillarda o'tkazilgan islohotlar natijasida jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda yangi ish uslublari tatbiq qilinib, aholi va jamoatchilik bilan uzviy muloqot yo'lga qo'yildi, ushbu sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etildi.

Jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik yanada kuchaytirildi.

Olib borilayotgan keng ko'lami ishlar natijasida fuqarolarda jinoyatchilikka qarshi kurashishga va huquqbuzarliklarning oldini olishga daxldorlik hissi shakllandi. Mustaqillik yillarida respublikada huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi.

Shu bilan birga, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sababli hozirgi kun talablariga to'liq javob bermaydi.

Davlat idoralari aksariyat hollarda huquqbuzarliklar profilaktikasini faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholab, oqibatda ushbu faoliyatga lozim darajada e'tibor qaratmayapti.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi kutilayotgan natijalarni bermayapti.



Jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelingan. Inson tinch va xotirjam yashashni hohlaydi. Tinchlik bo'lgan joyda baraka va rivojlanish bo'ladi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida O'zbekistonning jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi maqsadlari aniq va ravshan bayon etildi.

Joriy yilda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi. Bundan tashqari, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta'sirchan tizimini yaratish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish maqsadida Prezidentimizning "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Xususan, o'tgan yilda qabul qilingan "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunda ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish sog'lig'ini saqlash, mehnatiga haq to'lash, uy-joy bilan ta'minlash, mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash, xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida transport vositalaridan imtiyozli foydalanish, davlat pensiya ta'minoti, davlat sug'urtasi, ijtimoiy yordam ko'rsatish shakllari orqali ta'minlanishi belgilab qo'yildi.

Huquqbuzarliklar juda ko'payib bormoqda. Xususan, Yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchiliklarni oldini olish masalasi bugungi kunda Yoshlarga oid davlat siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Shu ma'noda mamlakatda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, vazirlik va idoralar hamda nodavlat notijorat tashkilotlari bilan birga jamoatchilik vakillari tomonidan yoshlarning siyosiy faolligini oshirish, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish hamda yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish borasida ham yil davomida amaliy ishlar qilinmoqda.

- Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilar va g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan yoki sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini rivojlantirish;

- Jinoyatchilikni oldini olish tizimida profilaktika shakllariga mos keladigan turli jihatlar mavjud. Profilaktikaning umumijtimoiy darajasiga kiradigan davlat va jamiyatning faoliyati faqat iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi ziddiyatlarni hal qilish; axloqiy-ma'naviy sohadagi ziddiyatlarni hal qilish;

- tashkiliy-boshqaruv sohasidagi ziddiyatlarni hal qilishni o'z ichiga oladi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish, unga qarshi kurashish haqida gapirganda ushbu soha vakillarini ijtimoiy himoyasiga alohida ahamiyat qaratilayotganligi ham e'tiborlidir.

Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish va sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan bir qator





normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan 2014-yil 14-mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan bo'lib, unda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishning asosiy vazifalari belgilab qo'yilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash; jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash, shuningdek korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish; huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shartsharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish

- fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar sodir etilish sabablarini va ularga imkon berayotgan shartsharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish, shuningdek g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash, profilaktik ta'sir ko'rsatish orqali ularning axloqini tuzatishdan iborat.

#### ADABIYOTLARRO`YHATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi „O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida“gi 27-sonli farmoni

2.Xo'jaqulov S.B. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati. - T.:2017. - B. 5

3.Jaxongir o'g'li N. J. UYUSHGAN JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHNING UMUMIY MASALALARI //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 125-131.